



GENDER MUNOSABATLARNING TARIXIY VA NAZARIY TAHLILI

Raxmonova Surayyo Sadullayevna

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Surayyorahmanova88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18372047>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 26-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

gender munosabatlari, gender tushunchasi, tarixiy rivojlanish, tarixiy-nazariy asoslar, ijtimoiy rol, gender tengligi

ABSTRACT

Ushbu maqolada gender munosabatlari tushunchasining tarixiy shakllanishi hamda uning tarixiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tushunchasining biologik jinsdan farqi, uning ijtimoiy hodisa sifatida shakllanish bosqichlari tarixiy davrlar kesimida yoritib beriladi. Qadimgi jamiyatlardan to zamonaviy davrgacha bo'lgan gender munosabatlaridagi o'zgarishlar ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Shuningdek, XX asrda shakllangan asosiy gender nazariyalari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Gender tushunchasining tarixiy-nazariy va tahliliy yondashuv asosida o'rganilishi tarix fanida qadimdan insonning ijtimoiy rollari va jamiyatdagi vazifalari shakllanishiga doir qarashlarni tahlil qilishga qaratilgan. Gender konsepsiyasining asosiy mazmuni va tamoyillari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda diniy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Arxeologik va antropologik manbalarga tayangan holda tadqiqotchilar inson jamiyatlarida ijtimoiy vazifalar taqsimoti hamda yozuvsiz davrlarda yuz bergan o'zgarishlarni ilmiy jihatdan qayta tiklashga intilganlar.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida erkaklar va ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, mavqei hamda o'zaro munosabatlari doimiy ravishda o'zgarib kelgan. Ushbu munosabatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurati gender munosabatlari tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Gender masalasi bugungi kunda nafaqat ijtimoiy fanlarning muhim tadqiqot obyekti, balki davlat siyosati va barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi[1].

Gender munosabatlarini o'rganish orqali jamiyatdagi tenglik, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlash masalalariga ilmiy yondashuv shakllanadi. Shu bois gender munosabatlarining tarixiy shakllanishi va ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Gender munosabatlari tushunchasi erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy rollari, huquq va majburiyatlari hamda

imkoniyatlarini ifodalovchi ijtimoiy kategoriya hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda "gender" tushunchasi biologik jinsdan farqli ravishda, jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlar majmui sifatida talqin etiladi[1].

Gender munosabatlarining tarixiy shakllanishi ibtidoiy jamiyatlardan boshlanadi. Dastlabki jamiyatlarda erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar tabiiy mehnat taqsimotiga asoslangan bo'lib, ayollar asosan oilaviy va tarbiyaviy vazifalarni, erkaklar esa jismoniy mehnat va himoya funksiyalarini bajargan. Qadimgi Sharq va antik davr jamiyatlarida patriarxal munosabatlar ustun bo'lib, ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki cheklangan[2].

Aflotunning oila boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarga oid qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U o'z ta'limotida ayol va erkak o'rtasidagi farqlarni tabiiy omillar bilan izohlab, ularning tabiatida muayyan tafovutlar mavjudligini ta'kidlagan hamda bu farqlar jamiyatdagi rollar taqsimotiga ta'sir etishini qayd etgan[3].

O'rta asrlarda gender munosabatlari diniy va an'anaviy qarashlar ta'sirida shakllanib, ayolning jamiyatdagi o'rni asosan oila doirasi bilan chegaralangan. Yangi davrda sanoatlashuv va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida ayollarning ta'lim olish va mehnat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari kengaya boshladi.

XX asrda gender tushunchasi ilmiy muomalaga kirib kelib, ijtimoiy fanlarning mustaqil tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Feministik nazariya, ijtimoiy konstruktivizm va boshqa ilmiy yondashuvlar gender munosabatlarini jamiyatdagi tengsizlik va ijtimoiy adolat muammolari bilan bog'liq holda tahlil qildi. Bugungi kunda gender munosabatlari inson huquqlari va barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot tarixiy-qiyosiy va tahliliy usullar asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender munosabatlari tushunchasi tarixiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivoji bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Ibtidoiy va an'anaviy jamiyatlarda gender rollari asosan biologik omillarga tayanib belgilangan bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti bilan bu munosabatlar ijtimoiy xarakter kasb eta boshlagan.

O'rganilgan ilmiy manbalar tahlili gender munosabatlaridagi tengsizliklar ko'p jihatdan ijtimoiy stereotiplar va tarixiy shakllangan qarashlar bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, patriarxal munosabatlar hukmron bo'lgan davrlarda ayollarning ta'lim olish, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari cheklangan. XX asrda shakllangan gender nazariyalari esa erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarni tenglik va adolat tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqishga zamin yaratdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, gender munosabatlari tushunchasi jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar ta'siri ostida shakllangan murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Dastlabki jamiyatlarda tabiiy mehnat taqsimotiga asoslangan gender munosabatlari vaqt o'tishi bilan an'anaviy va patriarxal qarashlar bilan mustahkamlanib, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi mavqei va imkoniyatlarini notekis taqsimlashga olib kelgan.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivoji, ta'lim tizimining kengayishi hamda demokratik qadriyatlarining qaror topishi natijasida gender munosabatlariga bo'lgan yondashuvlar tubdan

o'zgaraga boshladi. Ayniqsa, XX asrda shakllangan ilmiy-nazariy yondashuvlar gender munosabatlarini biologik farqlardan ajratgan holda, ijtimoiy konstrukt sifatida talqin etish imkonini berdi. Bu esa gender tengligi masalasini jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari va ijtimoiy adolat bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga zamin yaratdi. Gender munosabatlarini chuqur va tizimli o'rganish jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tarixiy davr jamiyat taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda oila mustahkamligi, ona va bola salomatligini ta'minlash, ayollarning jamiyatdagi mavqeiini oshirish hamda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xalqaro huquqiy me'yorlar, jumladan, BMTning asosiy hujjatlari asosida oila va a'zolarining huquqlarini himoya qiluvchi milliy qonunchilik tizimi shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
2. Gender tadqiqotlari asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Платон. Политика: Наука об управлении государством / Платон. – М.: Эксмо, 2003. – 140 с.

INNOVATIVE
ACADEMY